

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2024  
5-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

<i>Kamolaxon Abrorxonova, Shukuronaxon Mеликузиева</i> ПЕДАГОГИ ЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ .....	656	<i>Mirzaolim Mamatqulov</i> SINF DAN TASHQARI VAQTLARDA O'QUVCHILARDA JISMONIY TAYYORGARLIKNING BARQARORLIGINI TA'MINLASH STRATEGIYALARI.....	736
<i>Mohichexra Boltayeva</i> TARIX TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGI TUZILMASI .....	658	<i>Muattar Nishonova</i> ELEKTRON AXBOROT TA'LIM RESURSLARINI LOYIHALASHDA UNIVERSAL TA'LIM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH .....	739
<i>Abdusalim Kenjaboyev</i> MAGISTRATURA TA'LIM BOSQICHIDA BO'LAJAK TA'LIM MENEJERINI KASBIY TAYYORLASHNING DEONTOLOGIK TAMOYILLARI .....	662	<i>Dilfuza Nurmanova</i> SINF JAMOASI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI MISOLIDA).....	743
<i>Navro'zbek Qadamov</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA OILA VA MAKTABNING O'ZARO TA'SIRI .....	667	<i>Bobir Nusharov</i> TASVIRIY SAN'ATDA DASTGOHLI RANGTASVIRNING O'RNI VA AHAMIYATI .....	749
<i>Dilfuza Amrieva</i> IMKONIYATI CHEKLANGAN TALABALARINING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.....	673	<i>Aziza Olimova</i> TALABALARDA TARIXIY HODISALARNI TAQQOSLASH ORQALI TAHLIL QILISH VA MANTIQIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH.....	753
<i>Noiba Sobirova</i> ONA TILI DARSLARIDA ETIMOLOGIK TAHLIL ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH SAMARDORLIGI.....	677	<i>Oygul Ashurova</i> DUNYO PEDAGOGIK TADQIQOTLAR TIZIMIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI MODERNIZATSIYA QILISH ASOSIDA TABIATGA ESTETIK MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH ...	756
<i>Abdijabbor Abjalov</i> DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIGA "ELEKTRON HUKUMAT"NI JORIY ETISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI XUSUSIDA....	681	<i>Aysha Qo'chqorova</i> O'SMIR QIZLARINING DUNYOQARASHINI KITOBXONLIK ASOSIDA SHAKLLANTIRISH.....	760
<i>Abduraim Ulug'ov</i> JAMIYAT IJTIMOIIY-SIYOSIY HAMDA MA'NAVIY-AXLOQIY HAYOTINI RIVOJLANTIRISHDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING O'RNI .....	684	<i>Mahliyo Sattorova</i> BO'LAJAK MUHANDISLARNI MUSTAQIL TA'LIM OLISH ORQALI KASBIY-IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASHGA QARATILGAN NAZARIYALAR .....	764
<i>Shahnoza Abdug'aniyeva</i> BIOLOGIYA TA'LIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA UNING ASOSIY OMILLARI.....	690	<i>Shoxrux Mirzayev</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIMGA OID ME'YORIY-HUQUQIY HUIJATLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	769
<i>Abdurashid Ashirov</i> KASB TA'LIMIDA O'QUV PEDAGOGIK FAOLIYAT SIFATINI TA'MINLASH OMILLARI.....	694	<i>Alisher Tilakov</i> SPORT MASHG'ULOTLARIGA O'RGATISHNING BOSQICH VA USLUBLARI.....	772
<i>Ziyoda Farxodova</i> ODAM SAVDOSIDAN JABR KO'RGAN ERKAKLAR VA AYOLLARNING IJTIMOIIY PORTRETLARI: GENDER FARQLARINING TAHLILI .....	698	<i>Qizlarxon Turdaliyeva</i> O'QUVCHILARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MAHORAT SIFATIDA .....	776
<i>Nadira Gulyamova</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARI XODIMLARIDA TASHKILIY XULQNI SHAKLLANTIRISH.....	701	<i>Arzayim Utambetova</i> THEORETICAL BASES OF USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING .....	781
<i>Samadjon Ilmurodov</i> "KASB" TUSHUNCHASINING FALSAFIY, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK MANBALARDAGI TALQINI .....	705	<i>Xojiakbar Uzoqboyev</i> TABIYIY FANLARNI O'QITISHDA FOYDALANISH MUMKIN BO'LGAN ANIQ TARIXIY MISOLLARNING PEDAGOGIK JIHATLARINI TIZIMLI TAHLIL QILISH.....	785
<i>Dildora Isayeva</i> TALABALARDA SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	708	<i>Xosiyat Xakimova</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI INGLIZ TILI O'QITISHDA KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI SAMARALI YO'LLARI.....	788
<i>Dilafruz Jabborova</i> ANALYSES OF DEVELOPING WRITING COMPETENCE BY INTEGRATING LANGUAGE SKILLS .....	713	<i>Alisher Yunusov</i> IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARNING ROLI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	791
<i>Dilafruz Jurayeva</i> TA'LIM-TARBIYA SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	715	<i>Шахноза Хайумова</i> МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ .....	796
<i>Madinaxon Arslanova</i> MAKTAB TA'LIMI SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF AQLI ZAIIF O'QUVCHILAR IJTIMOIIYLASHUVI .....	720	<i>Murot Isokov</i> IJTIMOIIY KAPITAL – FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI SIFATIDA .....	801
<i>Shaxnoza Mamatqulova</i> BOLALARINING AQLIY RIVOJLANISHIDA O'YINNING ROLI .....	723	<i>Maxbuba Xalmuxamedova</i> BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA KASBIY	
<i>Nigora Mirzoyeva, Marjona Hakimova</i> MAHMUDXO'JA BEHBUDIY ASARLARIDA MA'NAVIY- AXLOQIY TARBIYA MASALASI .....	728		
<i>Komiljon Mo'minov</i> TALABALARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENTSIYALARINI SAMARALI TASHKIL ETISH USULLARI .....	731		

KOMPETENTLIKNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI.....	806	<i>Xurshidabonu Mamatkulova</i> “KVANTITATIV SINONIMIYA: TIL, MADANIYAT VA KOMMUNIKATSIYA O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIRLAR”.....	883
<i>Marhabo Yakubova</i> UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	809	<i>Nilufar Reyimbaeva</i> WEB FAOLIYATGA TAYYORLASH ELEKTRON RESURSLARI YARATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI VA FUNKTSIYALARI .....	887
<i>Илхом Чориев</i> ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗРАБОТКИ СТРАТЕГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ К ОСУЩЕСТВЛЕНИЮ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	812	<i>Zebo Davlatova</i> SHAXSNING KONFLIKTOLOGIK MADANIYATI: MOHIYATI, TARKIBIY UZVLARI VA DARAJASI.....	892
<i>Bekmurod Abdunabiyev</i> BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI KASBIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI.....	816	<i>Shahnoza Ahmadjonova</i> INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES FOR ENHANCING CRITICAL THINKING IN HIGHER EDUCATION.....	895
<i>Жамиид Хамидов</i> ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДҚОРЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ .....	819	<i>Ирода Рахмонова</i> ЎЗБЕК ТИЛШУНОСЛИГИДА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАДҚИҚИ.....	898
<i>Javlon Zulxaydarov, Bekmurod Anorboyev</i> FUTBOL DARVOZABONINING OYOQ BILAN TO'P UZATISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI.....	823	<i>Odina Olimjonova</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA STRUKTURAVIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI.....	903
<i>Зулфия Захидова</i> РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	827	<i>Nargiza Jo'rayeva</i> “4K” KOMPETENSIYALARINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIM STANDARTLARIDAGI O'RNI .....	907
<i>Zufar Tohirov</i> TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ROLI .....	833	<i>Ibodulloxon Soliyev</i> OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIK TAMOYILLARINI JORIY ETISHDA AKADEMIK OMILLARNING ROLI .....	913
<i>Xayrullo Shoimqulov</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHIDA SYUJETLI HARAKATLI O'YINLARNING ROLI.....	837	<i>Sitora Tilyavova</i> GYNECOLOGICAL PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS....	918
<i>Parvina Saidjonova</i> DUAL TA'LIMDA INNOVATSION O'QITISH USULLARINING AFZALLIKLARI .....	843	<i>Raxim Shukurov, Rushana Narzullayeva</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ADAPTIV JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINING TASHKILY-USLUBIY XUSUSIYATLARI (KO'RISHDA NUQSONI BORLAR MISOLIDA) .....	922
<i>Dilyara Tuxfatullina</i> UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARIGA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO'RSATISHNING ZAMONAVIY MAZMUNI, MOHIYATI VA KOMPARATIV TAHLILI.....	849	<i>Gulnora Maxsudova</i> MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH .....	928
<i>Ulfat Rahmonov</i> O'QUVCHILARNING TABIIY FANLARGA OID KOMPETENSIYALARINI LOYIHA ISHLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH.....	853	<i>Khilola Nigmatova</i> THE DEVELOPMENT OF THE ENGLISH LANGUAGE IN NEW METHODOLOGICAL METHODS.....	931
<i>Shoxrux Mamadboyev</i> TALABALARDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH ORQALI FAVQULODDA VAZIYATLARDA HARAKATLANISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	857	<i>Aziza Sharipova</i> METHODS OF STUDYING VOCABULARY AND PHRASEOLOGY. TECHNIQUES FOR ENRICHING STUDENTS' VOCABULARY .....	935
<i>Malika Ismoilova</i> PROFESSIONAL TA'LIMDA NIZOLARNI BARTARAF ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA .....	862	<i>Мадина Исмаилова, Ойшажон Озодова</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РУССКИХ И АНГЛИЙСКИХ ПОСЛОВИЦ .....	939
<i>Iskandar Otabayev</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI.....	871	<i>Muyassar Xidoyatova</i> MATHEMATICAL FOUNDATIONS OF ASTRONOMICAL DATA PROCESSING .....	943
<i>Дилшод Рўзиев</i> ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМНИНГ РАҚАМЛИ МАЛАКА ОШИРИШ МУҲИТИДА ТИНГЛОВЧИЛАРНИ МУСТАҚИЛ ЎҚУВ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	875	<i>Tamara Xo'janova</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNI BUZG'UNCHI AXBOROTLAR TAJOVUZIDAN HIMOYA QILISH.....	946
<i>Дарья Абдалимова</i> ЖАМИЯТНИНГ ЯНГИ РАҚАМЛИ РИВОЖЛАНИШ ШАРОИТЛАРИДА ДАВЛАТ ВАЗИФАЛАРИ.....	879	<i>Jumagul Xalmuratova</i> TALABALARDA MUHANDISLIK TA'LIM SOHASI YUZASIDAN INTEGRATIV YONDOSHUV ASOSIDA KREATIV IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH .....	951
		<i>Lazzat Saydaliyeva</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI MASALA BILAN TANISHTIRISH ORQALI MATEMATIK BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	956
		<i>Nargiza Ravshanova</i> INFLUENCE OF PHRASEOLOGICAL UNITS ON LANGUAGE PROFICIENCY AND SMOOTH DEVELOPMENT.....	960



12. Мишенин Е.В., Олейник Н.В. Социальный капитал: теоретические подходы к формированию сущности и содержания. Механизм регулирования экономики– № 3. – М.: 2014. – с. 84–91.
13. Becker, G.S. Human capital: Theoretical and Empiric Analysis. N.I.: Columbia University Press, 1964.
14. Shults T. Investment in Human capital. N.I., London, 1971, P. 26–28

---

**BO'LAJAK TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARIDA  
NAQSHBANDIYA TARIQATI VOSITASIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI  
TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI**

---

**Maxbuba Xalmuxamedova,  
CHDPU "Texnologik ta'lim"  
kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya**

*Talabaniing kasbiy kompetentligi uning yo'nalishi va kelajakdagi kasb turidan kelib chiqib belgilanadi. Bo'lg'usi Texnologiya fani o'qituvchisi oliygoxda olgan bilim va ko'nikmalarini kelajakda amalda qo'llay olishi va yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi lozimdir. Maqolada talabalarda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida naqshbandiya tariqati vositasida kasbiy kompetentlikni takomillashtirish tamoyillari o'z aksini topgan.*

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik kasbiy kompetentlik, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o'z-o'zini rivojlantirish, pedagogning o'z ustida ishlashi, pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari, o'z-o'zini baholash, tariqat, tasavvuf, tarkidunyochilik, diniy qadriyatlar.

**Аннотация**

*Профессиональная компетентность студента определяется исходя из его направления и вида будущей профессии. Будущий преподаватель технологии должен уметь в дальнейшем применить полученные в вузе знания и навыки на практике и стать конкурентоспособным персоналом, обладающим высокой профессиональной компетентностью. В статье рассмотрены принципы повышения профессиональной компетентности будущих учителей технологического образования студентов с помощью наследия Накибандия*

**Ключевые слова:** компетенция, профессиональная компетенция, педагогическая компетенция, индивидуальная программа развития, саморазвитие, педагогическая работа над собой, этапы работы педагога над собой, самооценка, мистический путь, суфизм, аскетизм, религиозные ценности.

**Annotation**

*The student's professional competence is determined based on his direction and type of future profession. The future teacher of technology should be able to apply the knowledge and skills acquired at the university in practice in the future and become a competitive staff with high professional competence. The article discusses the principles of increasing the professional competence of future teachers of technological education of students with the help of the Naqshbandi heritage.*

**Key words:** competence, professional competence, educational qualifications of professional competence, pedagogical program of individual development, self-development, teacher's work on himself, stages of the teacher's work on himself, self-esteem, heritage, mysticism, outlandishness, religious values.

Ajdodlarimizning boy ilmiy merosini o'rganar ekanmiz, ularda yosh avlodga diniy ilmlar bilan birga, o'zlari uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'rgatib borish ham o'ta muhim ekani ta'kidlanadi. Toki, ular o'z zamonasidan ortda qolmasinlar. O'z davri yutuqlaridan ortda qolgan xalq, albatta, qoloqlikka mahkum. Buni biz musulmon davlatlari boshiga kelgan mustamlakachilik, qashshoqlik va johillik ofatlaridan ham bilib olsak bo'ladi. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam tomonlaridan "ilmning eshigi" deya ta'riflangan



Hazrat Ali (k.v.) bejiz: "Farzandlaringizga o'zingiz yashab turgan zamonning emas, ular yashaydigan zamonga munosib ilmni bering. Zero, ular sizlardan keyingi davrda yashaydilar", demaganlar.

Bu fikrni davom ettirgan holda Bahouddin Naqshbandning 9-rashhasi ya'ni Vuqufi zamoniyni ko'rib chiqamiz. "Vuqufi zamoniyy" - Zamondan voqif bo'lmoq. Bu qoidada solix o'zi yashagan zamoni bilmog'i va undan unumli foydalanmog'i ko'zda tutilgan. Albatta zamonlar o'zgaradi, Bahouddin Naqshband yashagan davr bilan hozirgi davr orasida juda katta farq bor. Ilm-texnika rivojlandi, yangi texnologiyalar yaratildi. Ilmda juda katta yangiliklar sodir bo'ldi. Bularning barchasi hozirgi zamon talabasiga juda katta ta'sir ko'rsatadi, lekin shunga qaramasdan biz abadiy qadriyatlarimizni unutmasdan ularni hozir ham o'rganib yoshlarimiz ongiga singdirmoqdamiz. Buning boisi ma'naviyat, komillikka intilish, mehnatsevarlik, pok niyat, halollik kabi tushunchalar barhayotdir. Ular hech qachon o'zgarmaydi, lekin bu tushunchalarni ham talabalar ongiga bugungi kun realligiga moslab singdirishimiz lozim. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi asosan qo'l mehnati orqali buyumlar yaratish, ularga ishlov berish texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanadi. Ushbu texnologiyalar yildan yilga o'zgaradi, kamolga yetadi. Bu borada talaba ham zamon bilan hamqadam bo'lib, barcha yangiliklardan foydalanib ularni ta'lim jarayonida qo'llay olishi lozimdir. Buning uchun u mustaqil fikrlaydigan, doimo o'z ustida ishlaydigan, yangilikka intiluvchi, kreativ shaxs bo'lmog'i lozimdir[2,45].

Talabaning kasbiy kompetentligi uning yo'nalishi va kelajakdagi kasb turidan kelib chiqib belgilanadi. Bo'lg'usi Texnologiya fani o'qituvchisi oliygohda olgan bilim va ko'nikmalarini kelajakda amalda qo'llay olishi va yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi lozimdir. Lekin buni amalga oshirish uchun ta'limda innovatsiyalar, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o'quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan integratsiyalash tendensiyalarini rivojlantirishimiz kerak.

Texnologiya fanida o'quvchilarni bilim olishga undash uchun eng avvalo ularda mehnatsevarlikni, o'z qo'li bilan buyum yaratishga intilishni va hunar olishga bo'lgan kuchli hoxishni uyg'otmoq lozimdir. Bunga erishishda kasbiy faoliyatni amalga oshirishga motivatsion omillar kerak.

A.K.Markova ta'biri bilan aytganda, "Kasbiy faoliyatning motivatsion sohasi bir qator funksiyalarni bajaradi: rag'batlantiruvchi (bu odamni kasbiy faoliyatda faol bo'lishga, unga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqaradi); rahbarlik qilish (kasbiy faoliyatda maqsadning xususiyatini belgilaydi); tartibga soluvchi (kasbiy faoliyatning yo'nalishlarini, motivlarini belgilaydi). Motivatsiya inson uchun kerakli bo'lgan, ammo hali mavjud bo'lmagan kasbiy faoliyatning bunday holatini o'rnatadi"[3,7].

Bizning nazarimizda texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda naqshbandiya tariqati asoslari muhim o'rin tutadi va mehnat qilish hamda hunar o'rganishga kuchli motivator vazifasini bajaradi. Bu o'rinda e'tiboringizni ana shu masalaning tahliliga tortamiz.

**1.Mehnat ko'nikmasiga egalik.** Mazkur talab texnologik ta'lim yo'nalishi bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetentligida asosiy talablardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar mehnat va uning shaxs hayotida tutgan o'rni to'g'risida aniq tushunchaga ega bo'lishi kerak. Mehnat ko'nikmasiga egalik masalasi Naqshbandiya tariqatida ustuvor yo'nalish sifatida qo'yilgan. Bu borada Xoja Ahror Valiy "Risolai Volidiya" asarida "Zohir- xalqqa, botin-Haqqa" prinsipini ko'rsatib o'tadi[4,2186]. Buning ma'nosi shuki, naqshbandiya tariqati vakillari iymonni insonning botiniy mohiyati sifatida qabul qiladi va shu sababli insonning ma'naviy dunyosini Allohga yo'naltiradi, insonning tashqi faoliyati dunyoviy hayotga mansub deb qaraladi. Shu sababli tariqat vakillari eng avvalo o'zlarida mehnat ko'nikmasini shakllantirishga xarakat qilganlar. Misol uchun, Muhammad Boqir "Maqomati Xoja Naqshband" asarida keltirishicha, Bahouddin Naqshband shunday degan: "Men kichik yoshligimdayoq otamdan kimhobga naqsh solish kasbini o'rgangan edim". Aynan mana shu holat keyinchalik naqshbandiya tariqatining barcha vakillari tomonidan qabul qilingan va ularning har biri biror kasb bilan shug'ullanganlar. Shu jihatdan bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarida mehnat ko'nikmasini takomillashtirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

-mehnatsevarlik tuyg'usiga ega bo'lish;

- iymonli kishining mehnat bilan shug'ullanishi shartligi;
- biror kasbni egallash.

Aynan mana shunday yondashuv texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida shakllantirilsa ularning kasbiy kompetentligini maqsadli takomillashtirishga erishiladi.

**2. Mehnatsevarlikka da'vat.** Bu masala bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi negizlaridan hisoblanadi. Unga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilarda mehnatsevarlik talab darajasida shakllangan bo'lishi va kelajakda ular o'z faoliyati davomida yoshlarda mehnatsevarlik ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Bu masalada Naqshbandiya tariqati halol mehnat qilish prinsipini ilgari suradi. Buning ma'nosi shuki, mehnatning yaxshi va yomon turi bo'lmaydi, biroq shaxsning individual mehnati o'zi va o'zgalarga foyda keltirishi kerak. Shu sababli bunday mehnatsevarlik ko'nikmasini Naqshbandiya tariqati vakillari halol mehnat qilish prinsipi deb belgilagan.

**3. Halol mulk egasi bo'lish.** Mazkur masala bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilari kasbiy kompetentligining asoslaridan biridir. Unga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar individual mehnat evaziga halol mulk topish ko'nikmasiga ega bo'lishi va bu ko'nikmani yoshlarda shakllantirishi kerak.

Ushbu masala bo'yicha Naqshbandiya tariqatida xususiy mehnat evaziga halol mulk topish mumkin degan prinsip ilgari surilgan. Buning ma'nosi shuki, shaxs faqat o'z xususiy mehnati bilan halol mulkka ega bo'ladi.

Bu tamoyillar sakkiz asrdan buyon naqshbandiya tariqati vakillari uchun asosiy maqsad bo'lib kelmoqda. E'tibor berilsa, mazkur tamoyillarni texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish asosi sifatida qabul qilish mumkin.

**Taxlil va natijalar:** Naqshbandiya tariqati asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish tamoyillari va ularning mazkur masaladagi ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

a) texnologik ta'lim yo'nalishii o'quv dasturlari va o'quv materiallarini naqshbandiya tariqati kabi manbalar asosida boyitish;

b) naqshbandiya tariqatining vakillari tomonidan bildirilgan inson shaxsi, kasbiy faoliyati va amaliy xatti-harakatlariga doir fikr-mulohazalari asosida o'quv adabiyotlari va darsliklarini didaktik jihatdan yanada takomillashtirish;

v) texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror Valiy kabi shaxslarning kasbiy faoliyat va uning halollik tamoyillari to'g'risidagi xikmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay... N. Abulhasan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi o'rinbosari. O'za 11.10.2018 Yoshlar ovozi

2. Markova A.K. "Psixologiya professionalizma" M., 1996

3. N.A. Muslimov... "Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi" T: "Fan va texnologiya" - 2013y. 8bet.

4. Xalmuxamedova M. A. Naqshbandiya tariqatida kasb-hunar egallashga da'vat/ Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 12 | 2021 ISSN: pp. 2181-1385

5. Naqshbandiya tariqati vositasida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish. Monografiya. – T.: «MALIK PRINT CO», 2022. UDK: 373: 159.9 KBK: 74.00 ISBN 978-9943792227 (28.01.2022. TVCHDPI № 10-buyrug'i sonli).